Xulosa qilib aytganda, globalizatsiya har ikki jamiyatda ismlar tizimini universallashtirmoqda, ammo jarayonlar har xil yo‘nalishda kechmoqda: nemislarda amerikalashuv, o‘zbeklarda turkiylashuv va globallashuv uyg‘unlashmoqda. Media va adabiyot bola obrazlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biriga aylandi. O‘zbek va nemis ismlarida milliy-madaniy kodlar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularning zamonaviy talqini jamiyatdagi yangi qadriyatlarni ham ifoda etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). А.В.Суперанская Современный словарь личных имён. 2005, с. 41.

(2). Mahmudov N. O‘zbek ismlari tarixi. Toshkent, 2008.

(3). Holmatov A. O‘zbek antroponimikasining asosiy bosqichlari. Toshkent, 2010.

(4). Yo‘ldoshev M. (2021). Til va madaniyat: antroponimik birliklarning konseptual tahlili. Toshkent, “Fan” nashriyoti.

(5). Qosimov T. (2015). Turkiy mifologiyada shaxs nomi va semantik kod. “Sharq tillari va madaniyati” jurnali, 7(3), 120–136-betlar.

(6). Атажанов Ш.Ш. (2023). Немис тили фразеологик ибораларининг таркибий вариацияси. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1(4), p. 110–112.

Xakimov Qo‘chqarboy Muxtarjonovich (Universty of ecanomic and pedagogy NOTM, “O‘zbek va rus tili” kafedrasi dotsenti v.b.)

LINGVOPOETIKADA AYRIM LINGVISTIK OMILLAR

Annotatsiya. *Maqolada poetik nutqning ritmik-sintaktik va ekspressiv xususiyatlari lingvopoetika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Poetik nutqni prozaik nutqdan farqlovchi ritm, vazn, sintaktik qurilmalar hamda fonopoetik vositalarning o‘rni yoritiladi. Shuningdek, muallif sintaksisining individualligi va ekspressivlikning poetik nutqdagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, poetik nutq, ritmik-sintaktik xususiyatlar, muallif sintaksisi, ekspressivlik, emotsionallik, fonopoetika, poetik ritm, sintaktik poetika, badiiy ifoda.*

НЕКОТОРЫЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В ЛИНГВОПОЭТИКЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются ритмико-синтаксические и экспрессивные особенности поэтической речи с позиций лингвопоэтики. Освещается роль ритма, метра, синтаксических конструкций и фонопоэтических средств как основных отличительных признаков поэтической речи. Также анализируется индивидуальность авторского синтаксиса и значение экспрессивности.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, поэтическая речь, ритмико-синтаксические особенности, авторский синтаксис, экспрессивность, эмоциональность, фонопоэтика, поэтический ритм, синтаксическая поэтика, художественное выражение.*

SOME LINGUISTIC FACTORS IN LINGUOPOETICS

Annotation. *The article emphasizes that poetic speech, on the one hand, fulfills the aesthetic functions of linguistic and speech units, and on the other hand, plays a significant role in expressing the author's individual thoughts and emotions. Linguopoetics also stands out as a field that helps to study the creative and emotional impact of poetic speech.*

Key words*: Linguopoetics, poetic speech, rhythmic-syntactic features, authorial syntax, expressiveness, emotionality, phonopoetics, poetic rhythm, syntactic poetics, artistic expression.*

Kirish (Introduction). Poetik nutqning ritmik-sintaktik xususiyatlari uni prozaik nutqdan farqlovchi asosiy belgilardan biri hisoblanadi va vazn o‘lchovlariga solinganligi bilan ajralib turadi. Bu o‘lchov poetik nutq ritmini yuzaga keltiradi. Gap ko‘rinishidagi qurilmalarda (misra yoki baytlarda) bo‘laklarning ohangdoshligi va bir maromda aytilishi sintaktik birliklarning shakllanishini belgilaydi. Shu yo‘l bilan poetik nutqda ta’sirli ohang hosil qilinadi, bunda fonopoetik vositalarning o‘rni katta bo‘ladi. Lingvopoetika doirasida tadqiq etiladigan asosiy muammolardan biri muallif asarlarining sintaktik o‘ziga xosligi masalasidir. Muallifning til birliklarini shakllantirish mahorati uning o‘ziga xos sintaktik uslubiyatini belgilaydi. Sintaktik poetika bevosita muallif ifoda imkoniyatlariga ta’sir qiladi. Faqat sintaktik tadqiqotlar bilan muallifning tilning sintaktik qurilishiga qanchalik yangilik olib kirgani, yangi shakldagi lisoniy birliklar bera olganligini aniqlash mumkin bo‘ladi. G.O.Vinokur ta’biri bilan aytganda, “muallifning til xususiyatlaridagi o‘zgarishlarni muntazam kuzatib borish maqsadga muvofiqdir, chunki taniqli ijodkorlarning o‘ziga xos evolutsiyasidagi o‘zgarishlar til evolutsiyasidagi o‘zgarishlar demakdir”. Shuning uchun ham muallif tilining individualligini tahlil qilish lingvopoetik kategoriya sifatida muallif sintaksisining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Lingvopoetika tilshunoslikning qiziqarli, shu bilan birga, murakkab tarmog‘i sifatida maydonga keldi. Faqat poetik nutqdagina, uning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, tanlanishi, shakllanishi va joylashtirilishiga ko‘ra, lisoniy birliklar alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Til birliklari bunda nafaqat poetik nutqni shakllantiradi va axborot yetkazish uchun xizmat qiladi, balki bir paytning o‘zida, estetik vazifaga ham ega bo‘ladi. Bundan tashqari, turli sintaktik-kompozitsion, ohang va ritm yaratuvchilik, ekspressiv-stilistik funksiyalarni bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Nutq muallifi uslubining shakllanishida sintaktik o‘ziga xoslikning o‘rni belgilanganda, muallif stilistik imkoniyatlarining yuzaga kelishida u tomonidan yaratilgan lisoniy birliklarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Lingvopoetika tahlillari shunisi bilan farqlanadiki, poetik nutqni tashkil etgan lisoniy birliklar tarkibidagi so‘zlar guruhi (bo‘laklar tizimi) faqat ma’nolari va bo‘lak sifatidagi belgilariga emas, poetik nutqda bajargan vazifasi, poetik nutq uchun xoslanishiga e’tibor qaratiladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, muallif tomonidan tuzilgan lisoniy birliklarning turlari poetik nutq mavzusi va asarning umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Hatto lisoniy birliklarning shakliy tomonlari ham muallifning poetik fikr ifodasidan kelib chiqib belgilanadi. Masalan, bolalar uchun yozilgan she’rlarda sodda yoyiq yoki sodda yig‘iq gaplarning qo‘llanilishi fikrni oddiy va ixcham ifoda etish imkonini beradi.

Men sizlarning olmangiz,
Xomligimda olmangiz,
Nortojiga o‘xshab so‘ng
Voy qornim, deb qolmangiz. (E.Vohidov)

Poetik nutq muallifning ichki dunyosi yoki uning lahzalik tuyg‘ularining badiiy ifodasi bo‘lganligi uchun ham, ifodada til vositalarining eng mahsuldor, ma’no va mazmun tovlanishlirini tinglovchiga yetkaza oluvchi turlari saralanadi. Obyektiv borliq va real voqelik poetik nutq muallifining tuyg‘ulari orqali tasvirlanadi. Fikr shiddati va muallif tuyg‘ulari (u ijobiy yoki salbiy bo‘lishidan qat’iy nazar) poetik ifodada o‘z aksini topadi.

Yorni oftob deding, Erkin,
Kuymagin hijronida
Oftob goh berkinur,
Bundan diling g‘ash bo‘lmasin. (E.Vohidov)

Yemotsionallikka yo‘g‘rilgan poetik ifoda lisoniy birliklarning shu holatga mos tarzda shakllanishini taqozo etadi. Fikr va tuyg‘ularning sodda, qo‘shma yoki murakkab qurilmalar vositasida ifoda etilishi, ya’ni fikrga mos qurilma shakllantirilishi poetik nutqning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ana shundagina poetik nutqda shakl va mazmun uyg‘unligi yuzaga chiqadi, ko‘zlangan maqsadga to‘liq erishiladi.

Kuz yoysa ham yo‘llarga xazon,
Qor ko‘msa ham borliqni butun,
Ko‘klam kelib, ursa ham xandon,
Eshigingdan o‘tarman bir kun. (O.Matjon)

Poetik nutqning sintaktik xususiyatlarini o‘rganishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan yana bir masala ekspressivlikdir. Yekspressivlik muammosi tilshunoslikda uzoq yillardan buyon tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga tortib keladi. O‘zbek tilshunosligida A.Abdullayev, B.Umurqulovlarning ishlarida ekspressivlik masalalariga diqqat qaratilgan.

Yekspressivlik, eng avvalo, emotsional tuyg‘ularning poetik ifodasida ko‘rinadi. U fikrni tez, ifodali, ta’sirli va tasviriy holatda yetkazadi. Ekspressivlik bo‘yicha izlanishlar olib borgan rus tilshunos olimasi Y.I.Koroleva ekspressivlikning aniq ta’rifini beradi: “ekspressivlik inson tuyg‘ulari va emotsional holatlarini ifodalovchi til va nutq kategoriyasi bo‘lib, mazkur kategoriyaning asosiy xususiyati sifatida kommunikatsiya jarayonida adresatga voqelikka munosabat, emotsional baholash, tuyg‘ularini ifodalash yo‘li bilan ta’sir qilish kabilarni ko‘rsatish mumkin”. Demak, ekspressivlik tilning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblangan ta’sir qilish funksiyasining yuzaga chiqishida muhim rol o‘ynaydi. Mazkur kategoriya poetik nutqda tilning xilma-xil birliklari va nutqiy vositalari yordamida ifoda etiladi. Yekspressivlikning poetik nutqda samarali qo‘llanishi natijasida emotsional ta’sirga ega bo‘lgan effekt shakllanadi. shu yo‘l bilan asosiy maqsadga erishiladi. Y.I.Korolevaning ta’biri bilan aytganda, “yemotsiya shodlik, quvonch bo‘lsa, ularni tashqi tomondan ifodalovchi raqs ekspressivlikdir”. Shuning uchun ham ekspressivlikni lingvopoetikaning funksional-semantik aspektida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Poetik nutq bu ekspressiv nutqdir. Shuning uchun ham poetik nutqni o‘rganishda uning ekspressiv jihatlariga e’tibor qaratish, ekspressivlikning yuzaga kelishini ta’minlovchi vosita va figuralarni tadqiq etish bunday nutq mohiyatini keng va atroflicha o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi.

Ekspressivlikning yuzaga kelishida emotsionallik muhim ahamiyatga ega. Faqat shuni ta’kidlash lozimki, ekspressivlik emotsionallikka nisbatan keng tushuncha bo‘lib, u nafaqat emotsionallikni, balki erkin intellektual funksiyani ham yuzaga chiqaradi. Yekspressivlikka berilgan turli ta’riflardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, ekspressivlik uslubiy neytral vositadan farqli tarzda o‘zining ifodaliligi, emotsionallikni subyektiv baholash yo‘li bilan ta’sir etishi, voqelikka yoki adresatga bo‘lgan munosabatini emotsional ifodalashi bilan xarakterlanadi. Uning ifoda vositalari sifatida badiiy tasvir vositalari, troplar va poetik nutqning shakllanish jarayonida qo‘llanuvchi turli sintaktik-stilistik figuralarni ko‘rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Винокур Г.О. О языке художественной литературы. Москва, “Высшая школа”, 1991.

(2). Абдупаттоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. Фил. фанл. номз... дисс..., Тошкент, 1998.

(3). Абдуллаев А. Экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. Б.Умуркулов. Поетик нутк лекцикаси. Тошкент, “Фан”. 1981.

(4). Королева Е.И. Экспрессивные грамматические средства языка в аспекте функционально-семантического поля (на материале современной британской беллетристики). Автореф… дисс…канд…фил…наук, Екатеринбург, 2016.

(5). Романова Н.П. О метаязыке раздела лексикологии, изучающего экспрессивную лексику. Экспрессивность на разных уровнях языка. Межвуз. сб.науч. трудов, Новосибирск, 1984.

Xalilova Sitora Zarifovna (Toshkent Amaliy fanlar universiteti TEFL o‘qituvchisi, “Gavhar” ko‘chasi, 1, Toshkent, O‘zbekiston; E-mail: sita.khalilova30@gmail.com)

INGLIZ TILIDA FE’L ASOSIDAN SHAXS OTLARI YASASH USULLARI: MORFOLOGIK VA SEMANTIK YONDASHUV

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida shaxs otlarining yasalish xususiyatlari, so‘z yasalishining tilshunoslik tarixidagi o‘rni, shuningdek, har ikki til tizimidagi umumiy va farqli jihatlar morfologik, semantik, tarixiy tahlillar asosda yoritilgan. Tilshunoslikda shaxs otlarining ahamiyati hamda ularning lingvistik xususiyatlari ilmiy-nazariy asoslanib yoritib berilgan. Maqolada ingliz tilida fe’l asosidan shaxs otlari yasashning morfologik va semantik tasnifi, tarixiy taraqqiyoti va samaradorligi ilmiy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *tilshunoslik, inson, ot, so‘z, muloqot, vosita, lingvistik, morfema, fonetik.*

Халилова Ситора Зарифовна (Преподаватель TEFL Ташкентского университета прикладных наук, ул. “Гавхар”, 1, г. Ташкент, Республика Узбекистан; E-mail: sita.khalilova30@gmail.com)

СПОСОБЫ ОБРАЗОВАНИЯ ЛИЧНЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ ОТ ГЛАГОЛЬНЫХ ОСНОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ: МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ И СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В статье анализируются особенности образования личных существительных в английском и узбекском языках, их роль в истории лингвистики, а также сходства и различия двух языковых систем. Рассматриваются лингвистические характеристики личных существительных и их значение в теоретическом контексте. Приводятся сведения о развитии этой области в узбекской и английской лингвистике.*

Ключевые слова: *лингвистика, человек, существительное, слово, коммуникация, средство, лингвистический, морфема, фонетический.*

Xalilova Sitora Zarifovna (Tashkent University of Applied Sciences, TEFL teacher, Gavkhar St. 1, Tashkent, Uzbekistan; E-mail: sita.khalilova30@gmail.com)

METHODS OF DERIVING AGENTIVE NOUNS FROM VERBAL BASES IN ENGLISH: A MORPHOLOGICAL AND SEMANTIC ANALYSIS

Annotation. *This article examines the features of agentive noun formation in English and Uzbek, the role of word formation in the history of linguistics, as well as the similarities and differences between the two language systems from a comparative and analytical perspective. The significance of agentive nouns in linguistics and their linguistic properties are investigated from a theoretical and scholarly standpoint.*